

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.D.Dehqonov</b>	
Bolalarni qo'g'irchoq teatri orqali tarbiyalashning o'ziga xos ahamiyati.....	194
<b>X.M.Xoshimxonov</b>	
Xoja Ahmad Yassaviyning irfoniy – falsafiy qarashlari.....	198
<b>M.A.Muxiddinova</b>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligining pedagogik xususiyatlari.....	204
<b>Y.A.Saidova</b>	
O'smirlarda ishonch hissi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari .....	208
<b>Sh.A.Mamajonov, X.M.Jo'rayev</b>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarida ekologik kompetentlikni shakllantirish.....	213
<b>M.M.Azizov</b>	
Skandinavcha yurish sport-sog'lomlashtirish dasturlarini optimallashtirishning asosiy vositasi sifatida .....	218
<b>D.V.Vohidova</b>	
Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni ustoz-shogird sifatleri haqida.....	223
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Murosa falsafasiga doir tushunchalarning tasavvufiy mohiyati .....	227
<b>X.X.Raxmatova</b>	
Ma'rifatli jamiyat qurishda Xoja Ahror Valiy murosaga oid qarashlarining ahamiyati.....	232
<b>O.L.Berdiyev</b>	
Abu Ali Ibn Sino va Nosiruddin Tusiyning falsafiy qarashlari .....	237
<b>D.D.G'ulomov</b>	
Abdulla Qodiriy ijodida retrospektiv syujet ("Mehrobdan chayon" romani misolida) .....	243
<b>D.I.Gulamova</b>	
Interpretation of euphemisms used in social life .....	246
<b>M.K.Juliyev, L.A.Gafurova, M.D.Xolmurodova, B.E.Abdikairov</b>	
O'zbekistonda tuproq eroziyasining sabablari va eroziyaga tasir qiluvchi omillar .....	250
<b>B.O.Komilova, M.R.Toxirova</b>	
Yuqori sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatiga jismoniy mashqlarning ta'siri .....	254
<b>B.O.Komilova</b>	
Ichak turli bo'limlaridagi fermentlar faolligining ayrim gormonlar ta'sirida o'zgarishi.....	257
<b>Z.M.Otaxonova, J.M.Otajonov</b>	
Talabalarni xalq pedagogikasi asosida milliy ruhda tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari .....	260
<b>A.I.Mirzoyev, M.A.Mamasoliyeva, J.M.Turdaliyev, B.D.Raxmonov, Sh.Sh.Turg'unboev, I.A.Xudoynazarov</b>	
Navoiy viloyati sho'rlangan tuproq tarkibidagi tuzlarni yuvish uchun kimyoviy melioratsiya usulidan foydalanish istiqbollari.....	263
<b>Sh.K.Abduraxmonov</b>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish metodikasi va pedagogik shartlari.....	270
<b>U.R.Radjabov, K.B.Xakimdjano</b>	
Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish usulublari.....	275
<b>O.Ortiqov</b>	
Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar).....	279
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janrining lingvistik xususiyatlari.....	283
<b>M.C.Курбоналиева</b>	
Муаррифии чанд таққираи умумии шоирони асри хviii .....	286
<b>X.A.Lutfullayeva</b>	
Problems of developing self-educational skills of students .....	293
<b>P.Абдуллаев</b>	
Татабуъоти Амир Муиззй ба қасидаҳои Унсурии Балхй .....	298

XOTIRA

<b>Ustoz Muxammadjon Qoraboyevning yorqin xotirasi .....</b>	<b>304</b>
--	------------

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING JAMOAVIY IJODIY, KASBIY VA TEXNIK TAYYORGARLIGINING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ КОЛЛЕКТИВНОЙ, ТВОРЧЕСКОЙ, ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ**

**PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF COLLECTIVE CREATIVE, PROFESSIONAL, AND TECHNICAL TRAINING OF FUTURE MUSIC TEACHERS**

**Muxiddinova Mohidil Asiljon qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Bo‘lajak musiqa ta‘limi o‘qituvchisining pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi uning bilim, ko‘nikma va malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, u egallagan kasbiy kompetensiyalari orqali musiqa ta‘limi jarayonida yuzaga kelgan pedagogik muammolarini hal qilishni ta‘minlaydi. Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va profesiogrammasi xususidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*Готовность будущего учителя музыкального образования к осуществлению педагогической деятельности связана с его знаниями, умениями и квалификацией, а через приобретенные профессиональные компетенции он обеспечивает решение педагогических задач, возникающих в процессе музыкального образования. В данной статье изложены мнения о современной модели и профиограмме специальности будущего учителя музыки.*

**Abstract**

*The readiness of the future music education teacher to carry out pedagogical activities is related to his knowledge, skills and qualifications, and through the acquired professional competencies, he ensures the solution of pedagogical problems that arise in the process of music education. This article describes the opinions on the modern model and professionogram of the future music teacher specialty.*

**Kalit so‘zlar:** pedagogik texnologiya, musiqa madaniyati, musiqa san‘ati, badiiy vositalar, ijodkorlik, musiqa o‘qituvchisi, pedagogik faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy-pedagogik daraja, metodik tayyorgarlik, ma‘naviy-axloqiy yetuklik.

**Ключевые слова:** педагогическая технология, музыкальная культура, музыкальное искусство, художественные средства, творчество, учитель музыки, педагогическая деятельность, профессиональная подготовка, профессионально-педагогический уровень, методическая подготовка, духовно-нравственная зрелость.

**Key words:** pedagogical technology, music culture, musical art, artistic tools, creativity, music teacher, pedagogical activity, professional training, professional-pedagogical level, methodical training, spiritual and moral maturity.

**KIRISH**

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta‘lim tizimi ham rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Ta‘lim tizimida olib borilayotgan keng islohotlar o‘qituvchi shaxsini o‘z ustida ishlashi, yangilik va innovatsiyalarga bo‘lgan talabni bir qadar oshirdi. Har bir o‘qituvchining shaxsiy, tabiiy va individual xususiyatlari bo‘lib, hozirgi zamon o‘qituvchisi mutaxassisligi modelini loyihalashtirish lozim. O‘qituvchi mutaxassisligi modelini umumiy va yagona holda tuzish, eng muhimi uning o‘z xususiyatlarini rivojlantirishi, o‘ziga xosligini saqlab qolishi, o‘z qiziqishlariga muvofiq holda ilgari intilishiga imkon berilishi zarur. Mazkur masalada ko‘p yillardan buyon ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, mutaxassis modelini yaratish va uni amalda qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ishlar hali yetarli emas, deb hisoblaymiz. Chunki, davr, zamon, taraqqiyot o‘zgarishi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va profesiogrammasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zgartirishni va takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi yosh avlod qalbi – kamolotining me‘mori, yoshlarga ta‘lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi. Doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, ko‘nikma va

malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borish lozim[3:208-212].

Pedagog, olim J.G'.Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida respublika o'qituvchilari shaxsining kasb uchun ahamiyatli xususiyatlari sifatida kirishimlilik, hissiy barqarorlik, yetakchilik, ijtimoiy yetuklik, ishonuvchanlik, ijtimoiy jasorat, dadillik, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish, qo'zg'aluvchanlik kabi jihatlarni belgilab bergan[2].

Har bir kasb o'z xususiyatiga ega. Musiqa o'qituvchisining o'ziga xos "sirlari" bor. Musiqa, san'atga bo'lgan muxabbat, o'zini bolalarga bag'ishlash, o'zining ishiga sodiqlik – bu pedagoglarning doimiy his-tuyg'ulardir. Bu kasbning murakkabligi, – deb yozadi mashhur pedagog O.A.Apraksina, musiqa madaniyati o'qituvchining ham musiqachi tushunchalariga kiruvchi elementlarni o'zaro bir-biriga jipsligining zaruriylikni aniqlash bilan ifodalansa, ularning har biri ko'p qirrali tushuncha ekanligini unutmazlik zarur[1]. Musiqa o'qituvchisi o'quv-tarbiyaviy ishlarni olib boradi, o'quvchilarning dunyoqarashlarini, fikrlashini va didni shakllantiradi. U nafaqat o'z fanini yaxshi biluvchi keng dunyoqarashli va ma'lumotli shaxs bo'libligina qolmay, balki cholg'u so'zning ustasi hamda keng ma'nosida jamoa shaxsi bo'lib qolishi zarur.

B.V.Asafyev o'z asarlarida musiqa o'qituvchisi faqat bir sohadagi "mutaxassis" bo'lmasligi kerak degan fikrlarni bildirib, u nazaryachi, musiqa tarixchisi, musiqa etnografi va har doim ham bir tomondan diqqatni jalb qilish uchun musiqa asbobini yaxshi biladigan ijrochi bo'lishi kerak deb aytib o'tgan[4:62].

### NATIJARLAR VA MUHOKAMA

O'sib kelayotgan yosh avlodni musiqa va ashula san'atlari yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maqsadlilik va izchilligi bilan tavsiflanadi. Hozirgi zamon sharoitida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini shaxs sifatida shakllanishlari, ijtimoiy munosabatlarini rivojlanishi bilan bir jarayonda sodir bo'ladi. Shaxsni tarbiyalash jarayoni rejalashtirilgan mazmun va mohiyat evaziga amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida musiqiy ta'limning barcha institutlarini ta'lim-tarbiya funksiyalarining koordinatsiya asosida optimal boshqarishga imkoniyat beradi. Ular orasidagi maktab, oila, mehnat jamolarini o'zaro harakatlari, o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik nuqtai nazardan, undagi nazariy va amaliy ta'limning o'qitilishi keng tarmoqli texnologiyalarga tayanganligidir.

Oliy ta'limda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy ishni takomillashtirish zarurati bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining jamoaviy ijodiy ishni tashkil etishda musiqiy san'at va pedagogikaning integratsiyalashuvi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kelajakdagi pedagogik faoliyati tarkibiy qismlarining butun majmuasi hali to'liq aks ettirilmagan. Shu tufayli oliy ta'limda musiqa o'qituvchisi tayyorlash tizimi juda murakkab bir qator (musiqiy pedagogik, amaliy va nazariy, uslubiy, dirijor, vokal-xor, instrumental ta'lim) komponentlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagogik ilm-fanning zamonaviy darajasi bo'lgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarlik jarayonining alohida jihatlarni o'rganish uchun integral yondashuv zarur.

Oliy ta'limda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining jamoaviy ijodiy ishini takomillashtirish mazmuni va texnologiyasi asosan aniq shartlar, ta'lim mafkurasi, ustuvor ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Kasbiy tayyorgarlik haqida ham shunday deyish mumkin: undagi o'zgarishlar jamiyatning rivojlanishi, ta'lim tizimi rivojlanayotgan sharoitlar bilan bog'liq.

Respublikamizda tayyorlangan pedagoglarning umumlashtirilgan modelining tahlili va uning bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda yana bir qator vazifalarni qo'yilishi bejiz emas. Chunki butun dunyo ta'lim tizimida bo'lgani kabi, uzluksiz ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan talablar davr va zamon o'zgarishlari bilan takomillashtirilib, yangi-yangi innovatsion g'oyalar asosida rivojlantirilib, kam mehnat sarflab, ko'proq natija olish uchun harakat qilinib boriladi. Bu holat bevosita musiqa ta'limi o'qituvchisining mutaxassislik modeli xususiyatlariga ham taalluqlidir. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi asosiy masalalarni kiritish va ilmiy-pedagogik nuqtai nazaridan qayta ishlash lozimligini ko'rsatdi. Shu sababli Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida har bir fan o'qituvchisi, shu jumladan, musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining pedagogik faoliyatidagi o'ziga

xos xususiyatlarni hisobga olgan holda zamonaviy modeli va unga mos holda profesiogramma tuzish zaruratini keltirib chiqaradi. Mazkur modelning asosini musiqa o'qituvchisi tashkil qilib, u shaxs sifatida:

- ~ yuksak ma'naviyatli va madaniyatli;
- ~ uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol rejalarni ilgari surish va hal etishga qodir;
- ~ ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil xulosa qila oladigan va undan amaliyotda to'g'ri foydalanadigan;
- ~ o'zida milliy istiqloq mafkurasi va g'oyalarini singdirgan;
- ~ jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan;
- ~ shuningdek, yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadr sifatida:
- ~ ijodiy va ijtimoiy faol;
- ~ g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy yetuk bo'lishi;
- ~ mumtoz musiqani tushunish uchun ijodiy tafakkuri bo'lishi;
- ~ o'zbek musiqa merosining sarchashmasi hisoblangan maqom asarlari haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi va uni amaliyotda qo'llay olish darajasini egallaganligi;
- ~ yuqori darajadagi ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy metodik, tashkiliyuslubiy jihatdan tayyorgarlik orqali yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lishi nazarda tutildi[5:48].

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak:

- talabalar bilan birgalikda "ta'lim bo'shliqlarini" mustaqil ravishda to'ldirib o'rganish;
- talabalarning musiqiy ijrochilik va mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish;
- o'quvchilar bilan turli tadbirlar tashkil qilish va tadbirda qatnashgan o'quvchilarni rag'batlantirish;
- faoliyatni tashkil etishning turli shakllaridan, shu jumladan o'quvchilarni turli xil ish va faoliyatlarga jalb qilib, ularning moyilligi, o'ziga xos xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini "baholash";
- muloqot va muhokamalar rejimida darslarni olib borish, o'quvchilar muhokama qilindigan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini va musiqiy ijrochilikni ifoda etishni istagan muhitni yaratish, nafaqat bir-birlari bilan, balki o'qituvchi bilan ham o'z musiqiy ijrochiliklarni ham so'roq qilish va tanqid qilish mumkin;
- ijrochilik malakalariga ega bo'lish va ularni o'quv jarayonida qo'llash.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni jamoaviy ijodiy, kasbiy va texnik tayyorgarligi bugungi kunda quyidagilarni ta'minlashi zarur. Birinchidan, yetarlicha yuqori darajadagi kasbiy bilim va malakalar bu bilimlar nafaqat ijro amaliyotida shuningdek, ilmiy tushuncha va qonunlarni qo'llashda imkon berishi kerak. Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida samarli ishlay olishi uchun shaxsda individual xususiyatlar va dunyoqarashni shakllantirish zarur.

### XULOSA

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash zaminida ularning bilimlarni muntazamligini tekshirish, umumlashtirishni, umumta'lim, uyg'unlik va kasbiy-pedagogik darajasida tekshirilish zarur. Bu bilim darajalari, pedagogik faoliyatda o'zaro munosabatda bo'ladilar. Musiqa madaniyati o'qituvchilarini maxsus tayyorgarlik shakllarini ishlab chiqish, nazariy darajaga ko'tarish, nazariy jihatdan ishlab chiqilgan o'qituvchilar tayyorlashni samaradorligini takomillashtirish yollari orqali amalga oshirilishi zarur.

Xulosa sifatida aytib o'tish joizki, musiqa o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga o'z navbatida metodologik, gnoseologik, kommunikativ, konstruktiv, loyihalash va tashkilotchilik bilim, ko'nikma va malakalardan iborat bo'libgina qolmay, quyidagi yakuniy natijalarga erilishildi. O'qituvchining metodik tayyorgarligining tarkibiy qismlari sifatida metodologik, gnoseologik, kommunikativ, loyihalash va tashkiliy faoliyatga oid bilim, ko'nikma va malakalar belgilandi. Yuksak kasb-hunar madaniyatiga ega bo'lgan mutaxassis sifatida o'zida ijtimoiy va ijodiy faollik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy yetuklikni mujassamlashtirsa, yuqori malakali raqobatbardosh pedagog sifatida respublikaning iqtisodiy tarmoqlarida malakali kadrlar tayyorlash ishida o'zining munosib hissasini qo'sha oladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Апраксина А.О. Методика музыкального воспитания в школе. – Москва: Просвещение, 1983. – 222 с.
2. Йўлдошев Ж.Ф. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: (ёхуд ўқитувчи бўлиш осонми?). – Т.: «Ўқитувчи», 1998.
3. Холиқов А. Педагогик маҳорат. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2011. – Б. 208-212.
4. Omanqulova Sh. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish texnologiyalari asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish. "Oriental Art and Culture" Scientific – Methodical Journal - (3) III/2020. – B. 61-65.
5. Yuldoshev U.Y. Musiqa o'qituvchisi mutaxassisligining zamonaviy modeli va professiogrammasi. Zamonaviy ta'lim / Современное образование 2019, 9(82). – Б. 47-53.